



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

20 25 yil “ 04”iyul _____

№ 198

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi tibbiyot muassasalarida tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini joriy qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 19-iyundagi 382-sonli qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 19-iyundagi 382-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

a) birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti (keyingi o‘rinlarda — Davlat budjeti) hisobidan qoplanadigan tibbiy yordam tuman (shahar) darajasida ambulator sharoitda ko‘rsatilishi;

b) Sog‘liqni saqlash vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari (keyingi o‘rinlarda — kafolatlangan paket) ro‘yxatini shakllantiruvchi vakolatli organ hisoblanishi;

bunda Sog‘liqni saqlash vazirligi har yili 1-avgustga qadar kelgusi yil uchun kafolatlangan paket hajmlarini shakllantirishi, Iqtisodiyot va moliya

vazirligi bilan birgalikda talab qilinayotgan mablag'lar miqdorini kelishishi hamda zarur mablag'lar kelgusi yil uchun tasdiqlanadigan Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutilishi;

d) kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy yordamdan (dori vositalari, sarflash materiallari va buyumlar) tashqari tibbiy xizmatlar pulli asosda ko'rsatilishi (shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatish bundan mustasno) ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva), Onalik va bolalikni muhofaza qilish boshqarmasi (N.Hamrayev), Tibbiy sug'urta boshqarmasi (Sh.Almardanov), Moliya - iqtisod boshqarmasi (O.Safarov), Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari:

har yili 1-avgustga qadar kelgusi yil uchun "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro'yxati"ni shakllantirish hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda talab qilinadigan mablag'lar miqdorini kelishishni ta'minlasin.

Bunda, davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy qilingan hududlarda kafolatlangan paket doirasida aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam uchun mablag'lar Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi tomonidan ajratilishi inobatga olinsin.

4. Nazorat inspeksiyasi (A.Alijanov) Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari bilan birgalikda:

tibbiyot muassasalarida kafolatlangan paket doirasida ko'rsatiladigan tibbiy yordam hamda muassasalarning tegishli dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktivlar va sarflov materiallari bilan ta'minlanishini tizimli nazoratga olsin;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha belgilangan tartibda choralar ko'rib borsin.

5. Matbuot xizmati (F.Sanayev):

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida kafolatlangan paket doirasida aholiga ko'rsatiladigan tibbiy yordam ro'yxatini vazirlikning rasmiy veb-saytida joylashtirsin hamda uning kelgusi yillarda doimiy yangilab borilishini ta'minlasin;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshliqlari bilan birgalikda hududlarda kafolatlangan paketni tibbiyot xodimlari hamda aholiga tushuntirish, ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot qilish choralarini ko‘rsin.

6. Rejali gemodializ muolajasini oladigan bemorlar uchun beriladigan dori vositalarining ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlari:

a) bir oy muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar tuman/shahar markaziy shifoxonalarida gemodializ muolajasini qabul qiluvchi bemorlar uchun xarid qilingan ilovadagi dori vositalarini hududiy tuman/shahar markaziy shifoxonalarida, Toshkent shahrida esa shahar kilinik shifoxonalarida rejali gemodializ muolajasini olayotgan bemorlar sonidan kelib chiqib berilishini ta‘minlasin.

Bunda, ilovadagi dori vositalari Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan diagnostika va davolash standartlari hamda klinik protokollarga muvofiq qo‘llanilishi inobatga olinsin.

b) birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida kafolatlangan paketni aks ettirgan stendlarni aholi o‘qishiga qulay bo‘lgan joylarida tashkil etilishini ta‘minlasin;

d) birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini kafolatlangan paketga kiritilgan **dori vositalari, tibbiy buyumlar, reaktivlar va sarflov materiallari** bilan ehtiyojga ko‘ra ta‘minlash choralarini ko‘rsin;

e) birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida aholini profilaktik ko‘riklar, skrining tekshiruvlaridan o‘tkazish, maqsadli patronaj xizmati bilan qamrash, oilaviy shifokor tomonidan tor soha mutaxassislari va shifoxonalarga yo‘llash (yo‘llanmalar berish) Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan diagnostika va davolash standartlari hamda klinik protokollarga muvofiq amalga oshirilishi va dori vositalaridan samarali foydalanishni qat‘iy nazoratga olsin.

8. Tibbiy jihoz, transport hamda insonparvarlik yordamini muvofiqlashtirish va hisobini yuritish bo‘limi (O.Meliboyev) Qoraqalpog‘iston Respublikasi sog‘liqni saqlash vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshliqlari bilan birgalikda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida kafolatlangan paketni to‘laonli joriy qilish uchun talab etiladigan tibbiy asbob-uskunalar ta‘minotini o‘rgansin hamda natijasiga ko‘ra qo‘shimcha ehtiyojni shakllantirsin.

9. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "Oilaviy shifokorlik punktlari, oilaviy poliklinikalar va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish hajmi va dori vositalari harakatini tartibga solish to'g'risida" 2022-yil 18-fevraldagi 63-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

10. Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir



A. Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining

2025-yil 04 iyuldagi

198 - son buyrug'iga

ilova

Rejali gemodializ muolajasini oladigan bemorlar uchun beriladigan dori vositalari

RO'YXATI

T/r	Xalqaro patentlanmagan nomi	Dori shakli
I. Trombotsitlar aggregatsiyasi va qon ivishiga ta'sir qiladigan vositalar		
<i>Antikoagulyantlar va ularning antiagonistlari</i>		
1.	Geparin	in'eksiya uchun eritma
<i>Gemostatiklar</i>		
2.	Protamin sulfat	in'eksiya uchun eritma
II. Eritropoezni stimullovchi vositalar		
3.	Temir Fe (III) birikmalari	in'eksiya uchun eritma
4.	Epoetin alfa/beta	in'eksiya uchun eritma
III. Parenteral oziqlantirish uchun vositalari		
5.	Aminokislota eritmalari	infuziya uchun eritma
IV. Plazma o'rnini bosuvchilar va tuzli eritmalar, erituvchilar		
6.	Odam albumini	infuziya uchun eritma

Izoh: Rejali gemodializ muolajasini olayotgan bemorlarga ushbu dori vositalari tashxislash va davolash milliy klinik protokollari hamda standartlariga muvofiq shifoxonada qilinadi.